

QASHQADARYO VILOYATI SHAHAR AHOLISI MANZILGOHLARINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Murodova D. S
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
Hamdamova I
Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati shaharlari va shahar aholi manzilgohlari aholisi soni, shahar manzilgohlarining tarkib topishi, hududiy shakllanishi, Qashqadaryo viloyati urbanizatsiya ko'rsatkichlari, shaharlarda sanoat korxonalarini joylashtirishda hududning tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik sharoitlari asosida sanoat ishlab chiqarishlarni majmuali tashkil qilish yo'llari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholi manzilgohlari, aholi punkti, qishloq, shahar, demografik salohiyat, urbanizatsiya, shaharcha, kichik shahar, tabiiy sharoit, sanoat ishlab chiqarish, sanoat korxonalari, infrastruktura

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ

Муродова Д. С.
Преподаватель Каршинского государственного университета
Хамдамова И
Студент Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье подробно описывается население городов и урбанизаций Кашкадарьинской области, состав и территориальное формирование урбанизаций, показатели урбанизации Кашкадарьинской области, а также способы комплексной организации промышленного производства с учетом природных, экономических, демографических и экологических условий региона при размещении промышленных предприятий в городах.

Ключевые слова: населенные пункты, поселение, деревня, город, демографический потенциал, урбанизация, поселок, малый город, природные условия, промышленное производство, промышленные предприятия, инфраструктура

ECONOMIC GEOGRAPHICAL CHARACTERISTICS OF THE URBAN POPULATION OF KASHKADARYA REGION

Murodova D. S
Teacher of Karshi State University
Hamdamova I
Student of Karshi State University

Abstract: This article describes in detail the population of cities and urban settlements of the Kashkadarya region, the composition and territorial formation of urban settlements, urbanization indicators of the Kashkadarya region, and ways to comprehensively organize industrial production based on the natural, economic, demographic, and environmental conditions of the region when placing industrial enterprises in cities.

Keywords: *population centers, settlement, village, city, demographic potential, urbanization, town, small town, natural conditions, industrial production, industrial enterprises, infrastructure*

Aholi manzilgohlari tizimini iqtisodiy geografik nuqtai-nazaridan o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki, aholi manzilgohlari ma'lum hududlarda ishlab chiqarishni hududiy shakllanishi va to'planishida tayanch nuqtalar hisoblanadi. Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati muayyan aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Turli kattalikdagi aholi manzilgohlari, ularning murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har xil yosh va jins, millat, elat, kasb - hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi. Mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholi manzilgohlari muhim o'rin egallaydi. U milliy iqtisodiy hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infrastrukturani bir – birlari bilan bog'lovchi vazifani bajaradi.

Shaharlar yirik aholi manzilgohlari bo'lib, unda yashaydigan kishilar qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy sohalarda shug'ullanishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o'ynagan. Shahar aholi manzilgohlari o'lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi manzilgohlaridagiga nisbatan ko'p sonliligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyat bilan belgilanadi.

Shahar aholi punktlari va ular aholisi soni doimo o'sib, rivojlanishi natijasida, shaharlarning tobora murakkab tizimlari vujudga kelmoqda. Shahar turmush tarzi asta-sekinlik bilan Yer sharida yashovchilar barchasini qamrab ola boshlaydi. Shaharlarning taraqqiy etishi uning yonida turli o'lchamdagi shaharlarning, ya'ni

yirik shahar atrofida shahar va shaharchalarning to'planishi, shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi shahar aholi punktlarining yangidan-yangi turlari paydo bo'lishiga, hududning demografik sig'im imkoniyatini oshirishga yordam beradi. Mazkur jarayonni boshidan o'tkazayotgan aholi punktlari va ular aholisi soni, nafaqat yadro shaharga nisbatan ko'payadi, zichligi ortadi, balki ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy-maishiy, diniy va xulqiy munosabatlarida, yashash tarzi hamda fe'l-atvorida o'zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa, aholi o'sishi va joylanishini ta'minlaydigan demografik jarayonlarda urbanizatsiya ta'siri yanada faollashadi, aholi yosh-jinsiy tarkibi, ijtimoiy-kasbiy tuzilishi, urf-odatlar va an'analar o'zgaradi, aholi hududiy harakatchanligi ortadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarning ustuvor rivojlanishi (xususan axborot, servis, turizm va x.k.), shahar turmush tarzining keng tarqalishi kuzatiladi.

Odatda, urbanizatsiya darajasi faqat tabiiy emas, balki sun'iy ravishda ham ko'tariladi. Sun'iy urbanizatsiya o'sha hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi (O'zbekistonda 2009 yil 13 martdagi Vazirlar Mahkamasining 68-sonli qarori bilan urbanizatsiya darajasi sun'iy ko'tarildi). Ammo aholi demografik mayli, munosabatlarida, bu hodisa birdaniga sezilmasada, ma'lum vaqtdan so'ng demografik jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarda yanada pasayishga olib keladi. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlardagi o'zgarishlar, keyinchalik shahar joylar aholisi demografik tarkibining buzilishiga sabab bo'ladi. Chunki, qishloqlardan shaharlarga aholi harakati faollashuvi kuchayadi, oqibatda, shaharlarda qishloq aholisiga xos demografik munosabat, demografik mayl, demografik tarkib va qarashlar paydo bo'ladi va ma'lum vaqtgacha saqlanib qoladi. Bu esa, biroz muddatgacha shahar aholisida tabiiy harakat ko'rsatkichlarining jonlanishiga, aholi soni va salmog'ining ortishiga yordam beradi.

Shaharlarda sanoatning rivojlanishi, ularning siyosiy va madaniy funksiyalarining kengayishi, hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi ana shu jarayon xususiyatlaridir. Urbanizatsiya uchun shahar atrofidagi qishloqlardan shaharlarga, kichik shaharlardan megapolislarga tebranishli migratsiya xosdir.

O'zbekistondagi amaldagi qonunchilikka ko'ra, sanoat korxonalariga, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarga, kommunal xo'jaliklariga, davlat turarjoy fondiga, madaniy-ma'rifiy, ta'lim, davolash profilaktika, savdo, ta'minot, kommunikatsiya, transport va boshqa muassasalarning keng tarmog'iga ega bo'lgan, kamida 7000 aholisi bo'lgan aholi punktlari shahar maqomini olishi mumkin. Aholisi kamida 2000 kishidan iborat bo'lgan, sanoat korxonalari, transport va boshqa hayotiy muhim obyektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari shahar turidagi posyolka maqomini olishi mumkin. 2009 yilda mamlakat hukumatining qarori bilan respublikadagi aholisi kamida 2000 kishidan iborat bo'lgan 965 ta yirik aholi punktlariga shahar posyolkalari maqomi berildi, natijada O'zbekistonda shahar aholisi soni 4,4 million kishiga ko'paydi.

Hukumat qaroriga muvofiq, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 11 ta, Andijon viloyatida - 79 ta, Buxoro viloyatida - 59 ta, Jizzax viloyatida - 33 ta, Qashqadaryo viloyatida - 117 ta, Navoiy viloyatida - 29 ta, Namangan viloyatida - 108 ta, Samarqand viloyatida - 75 ta, Surxondaryo viloyatida - 106 ta, Sirdaryo viloyatida - 15 ta, Toshkent viloyatida - 78 ta, Farg'ona viloyatida - 198 ta, Xorazm viloyatida - 50 ta qishloq shahar posyolkalariga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 12-moddasiga muvofiq, aholi punktlari eng yirik shaharlar (1 mln kishidan ko'p), yirik shaharlar (250 ming kishidan 1 mln kishigacha), katta shaharlar (100 ming kishidan 250 ming kishigacha), o'rtacha shaharlar (50 ming kishidan 100 ming kishigacha), kichik shaharlar (50 ming kishigacha)ga bo'linadi.

Bugungi kunda aholisining soni 20 ming kishigacha bo'lgan shaharlarning umumiy soni 35 ta bo'lib, ular mamlakat shaharlari tizimining 29,4 foizini tashkil etadi. Ularda respublika shaharlari aholisining salkam 5,4 foizi yashaydi. Aholisi 20 mingdan 50 minggacha bo'lgan shaharlar 48 tadir (shaharlar tizimining 40,3 foizi). O'rtacha shaharlarda (aholisi 50-100 ming bo'lgan 19 ta shahar) shahar aholisining 16,0 foizi istiqomat qiladi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston shaharlarining ko'pchiligini (shaharlar tizimining 69,7 foizi) kichik va o'rta shaharlar tashkil etadi. Ularda shaharlar jami aholisining 35,1 foizi yashaydi.

Qashqadaryo respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sanoati kam taraqqiy etgan vohasidir. Keyingi 70 yilda Qashqadaryo ma'muriy jihatdan ancha vaqt boshqa viloyatlar tarkibida bo'ldi. Bu uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi. Umuman, viloyat tabiiy zahiralariga boy o'lka bo'lsada, turli tarixiy davrlarda iqtisodiy, ijtimoiy tomondan sust rivojlandi.

Ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti aholi manzilgohlarining rivojlanishiga ta'sir etdi va aholi manzilgohlarining bajaradigan vazifalarini o'zgartirib yuboradi. Natijada aholi manzilgohlariga ishlab chiqarishning rivojlanishi asosida qishloqlar o'rnida shaharlar shakllandi. O'zbekiston Respublikasi ayniqsa, Qashqadaryo voha shaharlari qishloq xo'jaligiga to'la bog'liq holda rivojlangan. Viloyatda shaharlar qishloqlar bazasida shakllangan. Bundan tashqari qishloqlar atrofidan yer osti tabiiy zahiralarini topilishi bilan paydo bo'lgan aholi manzilgohlarida ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi bilan shaharlar paydo bo'ldi.

Shahar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy - ma'muriy funksiyalarni amalga oshiradigan, aholi to'planadigan joydir. Shaharlar-qishloqlarga urbanizatsion jarayonning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi. Shuning uchun qishloqlarni-qishloq xo'jaligisiz, sanoatni-shaharsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, qishloqlarni-shaharsiz tushunish ham mumkin emas. Bu ayniqsa, iqlimi issiq mintaqalar uchun to'la taalluqlidir. Ma'lumki, O'zbekistonda shaharliklar soni 1960 yillardan, Qashqadaryo viloyatida esa 1970 yillardan keyin ko'payib bordi. Masalan: 1959 yilda O'zbekistonda shahar aholisi umumiy aholiga nisbatan 33,9%, 1970 yilda 36,8%, 1990 yilda 40,2 %, 1996 yilda 38,2%, 2000 yilda 37,4%, 2006 yilda 36,1%, 2010 yilda 51,5 %, 2025 yilda 51,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, Qashqadaryoda shu yillarda ushbu raqamlar 13,2,16,5,26,5, 25,4, 25,1, 24,8, 24,6, 43,4,42,9,42,7 % ni tashkil qildi.

Qashqadaryoning 3639,3 ming aholisi 1170 aholi manzilgohlarida istiqomat qiladi. Shundan 1041 qishloqda 2083,5 ming, 12 shahar va 118 shaharchada 1555,8 ming aholi yashaydi. Bu viloyat shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi va rivojlanishiga Qarshi dashtini o'zlashtirish, yoqilg'i zahiralarini ishga tushirish juda katta iqtisodiy ta'sir qildi. Shunga qaramasdan, Qashqadaryo respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va sanoatda ishlovchi aholi miqdori bo'yicha oxiridan ikkinchi, Surxondaryo viloyatidan oldingi o'rinda turadi. Mavjud korxonalar ham sanoqli bo'lib, ular viloyatning Qarshi, Shahrisabz, Muborak va Koson shaharlarida joylashgan. Qolgan 12 ta shahar va shaharchalarda faqat paxtani chigitdan ajratish sohasi bo'lgan sanoat korxonalari mavjud. 227,0 ming aholi yashaydigan yirik chorva va qurilish xomashyosiga boy Dehqonobod tumanida kaliy zavodi ishga tushirildi. 350,1 ming aholi istiqomat qiladigan Mirishkor va Kasbi tumanlari-viloyatning yirik paxta yetishtiruvchi, gaz va neft qazib oluvchi tumanlarida paxtadan chigitni ajratuvchi zavod va paxta punktlaridan boshqa sanoat korxonalari qurilmagan. Bu ikkala tumanda, 2009 yilda Mirishkorda 3 ta shaharcha, Kasbi tumanida 9 ta shaharcha shakllandi.

Keyingi paytda vohadagi ko'pgina shaharchalar shaharlar mezoniga to'g'ri kelmasada shaharga aylantirilgan. Bunday shaharlarga Kitob, Qamashi, G'uzor, Chiroqchi, Beshkent, Yangi Nishon va boshqalar kiradi. Ularda iqtisodiy, sotsial sohalar past darajada rivojlangan. Yangi shaharlarni barpo etish yoki qishloq manzilgohlarini shahar darajasiga ko'tarish uchun qanday mezoniga asoslanish kerakligini bilish hamda shahar bilan qishloqni ajratib turuvchi farqni topish hozirgi zamon urbanizatsiyasining asosiy dolzarb masalalaridan biridir. Hatto "shaharlar va shaharchalar orasidagi jarayonda ham qabul qilingan meyor yo'q". Hozirgi shaharlar faqat bir tomonlama ijtimoiy va demografik asoslarga bog'liq holda rivojlangan. Shaharlar barpo etish mezonning talablariga to'liq mos shaharni vujudga keltiruvchi omillar-shaharning bajarayotgan ma'muriy, ijtimoiy vazifalari, aholi soni va hokazolarning ayrimlari mavjudligi hisobga olingan holda ma'muriy tuman markazlarining aksariyati shaharlarga aylantirilgan.

Keyingi yillarda shaharliklar sonining ortishi asosan shaharlar yerining qishloqlar hisobiga kengayishi ta'sirida o'sgan. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida yangi tumanlar tashkil topdi. Natijada 1970-1979 yillarda shahar va shaharchalar, Beshkent, Kitob, Qamashi, Koson, G'uzor, Muborak, Tallimarjon shaharga va Qashqadaryo-shaharchaga aylantirildi. 1979-1995 yillarda Chiroqchi, Yangi Nishon-shaharga, Qorashina shaharchaga aylantirilishi asosida yana ko'paydi. 1989-1996 yillarda shaharlar atrofidagi (Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Muborak, Koson) qishloqlardan 33,0 ming aholi shaharga qo'shildi. Natijada shaharlar aholi sonining ortishi hisobiga ko'proq o'sdi. 1992 yilda Qarshi shahri atrofidagi 7 qishloq va uning 11,9 ming, Kitob shahriga 2961 kishi va Shahrisabz shahriga (1993) Oktabr shaharchasi birlashtirildi.

Hozirgi paytda viloyatda shaharchalar salmog'iga ko'ra Qarshi (15 ta), Yakkabog' va Koson (har birida 14 ta dan) Shahrisabz (13 ta), va Kitob (13 ta) tumanlari oldingi o'rinlarni band etadi. Ayni paytda Qamashi, G'uzor, Mirishkor va Dehqonobod tumanlarida 3 tadan 5 tagacha qishloq manzilgohlari shaharcha maqomiga ega bo'ldi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi yangi shaharchalarning soni

№	Tuman	Jami shaharcha	Aholisi		
			10000 dan ziyod	5000-10000	2000-5000
1	Dehqonobod	3		1	1
2	Kasbi	9	2	3	4
3	Kitob	13		1	13
4	Koson	14		2	12
5	Mirishkor	3	3		
6	Muborak	5	1	1	3
7	Nishon	9		8	1
8	Qamashi	5		1	4
9	Qarshi	15	1	1	13
10	G'uzor	5		1	4
11	Yakkabog'	14			14
12	Shahrisabz	13			13
13	Chiroqchi	5	2	6	
14	Ko'kdala	4		1	
	Qarshi sh	1			1
	Viloyat	118	9	26	83

Manba.Qashqadaryo viloyati statistika ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Qashqadaryo viloyatida aholisi soni 10 mingdan ziyod bo'lgan shaharchalar toifasiga Maymanoq, Ayritom, Qarliq, Mirishkor, Fazli, Pomuq, aholisi 5-10 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga 26 ta shaharcha (Nishon, Guvalak, Po'lati, Xitoy, Qatag'an, Navruz, Samarqand va boshqalar) kiradi va viloyatdagi shaharchalarning 1/5 qismini tashkil etadi. Jami aholisi 123,1 ming kishi bo'lgan 33 ta shaharcha aholisi 3,0-4,9 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga, 66 tasi esa aholisi 2,0-2,9 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga kiradi. 2025 yilda Qashqadaryo viloyatida 118 ta shaharcha tipiga o'tkaziladigan aholi manzilgohlari belgilandi. Viloyat tumanlari ichida eng ko'p shaharcha tipiga o'tkazilgan 15 ta shaharcha tipidagi aholi punkti bilan Qarshi tumani turadi. Tuman shahar aholisi (101,2 ming kishi) viloyat shahar aholisining 6,4 %ini tashkil etadi. 14 ta shaharchalar ajratilgan tumanlar ikkita bo'lib, Koson va Yakkabog' tumanlaridir. Koson tumani shahar aholisi (167,6 ming kishi) viloyat shahar aholisining 10,7 % ga teng bo'lsa, Yakkabog' tumani shahar aholisi esa (93,9 ming kishi) 6,0 %ni tashkil etadi. Shaxrisabz tuman shahar aholisi 57,5 ming kishiga teng bo'lib, viloyat jami shahar aholisining (1555,8 ming kishi) 3,7 %ini tashkil etadi va Kitob tumanida shahar aholisi (106,7 ming kishi) viloyat jami aholisining 7,0 %ini tashkil etgan holda 13 ta shaharcha ajratilgan. Viloyatda eng kichik yer maydoniga ega Kasbi tumanida 9 ta shaharcha tipidagi aholi punkti belgilanib, tuman shahar aholisi (84,2 ming kishi) viloyat shahar aholisining 5,3%ini tashkil etadi. Nishon tumanida 9 ta, Chiroqchi tumanida 5 ta va Ko'kdala tumanlarida 4 tadan shaharchalar ajratilib, Nishon tumani shahar aholisi (101,6 ming kishi) 6,6 % ni, Chiroqchi tuman shahar aholisi esa (78,5 ming kishi), viloyat shahar aholisining 7,0%ini tashkil etadi. Viloyatda uchta tumanda: G'uzor, Qamashi va Muborak tumanlarida beshtadan aholi punktlari shaharcha tipiga aylantirilgan. Tumanlar shahar aholisi (G'uzor -53,4 ming; Qamashi-71,0 ming; Muborak-75,6 ming kishi) viloyat shahar aholisining 3,4%; 4,5 va 5,0%ini tashkil etadi. Viloyatning qishloq xo'jalik yaxshi rivojlangan tumanlaridan Mirishkor tumanida uchta shaharcha tipidagi aholi punkti ajratildi. Ajratilgan bu shaharchalar aholisi (49,7 ming kishi)

viloyat shahar aholisining 3,2% iga teng. Maydoniga ko'ra viloyatda eng katta tuman Dehqonobod tumanida ikkita aholi punkti (Qarashina, Beshbuloq) shaharcha tipiga o'tkazilgan bo'lib, ularda 30,9 ming aholi istiqomat qiladi. Bu viloyat shahar aholisining eng kam - 2%ini tashkil etadi. Viloyat tumanlarida shaharcha tipiga aylantirilgan aholi manzilgohlari shahar aholisi bilan birga tumanlarning jami shahar aholisi viloyat shahar aholisining 70,9 %ini tashkil etadi. 19,4% esa viloyat markazi-Qarshi shahri aholisi (300,8 ming kishi) ga, 9,7 % i Shahrissabz shahri aholisi (150,1) ga to'g'ri keladi.

Viloyat shahar aholisining shakllanishi tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. Masalan, 2025 yilda aholining tabiiy ko'payishi respublika shaharlarida 23,7 promille bo'lsa, Qashqadaryoda esa bu ko'rsatkich 24,7 promilleni tashkil qiladi. Bu respublika viloyatlaridan shahar aholisining tabiiy ko'payish bo'yicha to'rtinchi o'rindadir. Lekin 1989-2025 yillarda shahar aholisining shakllanishida tabiiy ko'payish asosiy bo'lsada, migratsiyaning ta'siri ham sezilarlidir. Keyingi paytda boshqa respublikalar singari O'zbekistonda ham shahar aholisining shakllanishida migratsiyaning ta'siri sezilarli kamaymoqda. Umuman, keyingi yillarda viloyat shaharlar aholisi tabiiy ko'payish hisobiga, ayrim hollarda shaharlarga qishloqlarning qo'shilishi hisobiga ham o'smoqda. Viloyat shaharlarida tashqi migratsiyaning ta'siri salbiy bo'lsada, viloyat hududidan va respublika viloyatlaridan aholining ko'chib kelish jarayoni faollashgan.

Viloyatda urbanizatsiyon jarayon aholi migratsiyasi tarkibida faol mehnat resurslarining kamayib ketishiga yaqin yillargacha ta'siri bo'ladi. Chunki respublikadan tashqariga ketayotgan migrantlarning aksariyati malakali mutaxassislardir. Ular asosan ilgari Rossiya, Ukraina va boshqa respublikadan kelganlar. Birgina 1993 yilda respublika va Qashqadaryo viloyatidan ketganlardan 98,2 foizi va kelganlarning 94 foizi oliy va o'rta ma'lumotlilardir. Respublika va uning janubiy viloyatlaridan ketganlar asosan malakali mutaxassislardir, kelganlar bo'lsa ko'proq o'qishdan, armiya xizmatidan hamda Markaziy Osiyodagi respublikalar o'zbeklaridir. 1993 yilda respublika shaharlaridan ketganlar 137,6 ming (63,6 foiz) ni tashkil etadi, 68,5 ming (41,8) kishi qishloqdan kelganlar tashkil

qilgan. Qashqadaryo viloyati shaharlaridan ketganlarning 3311 ta (44%) si, shundan 1043 (15 %) tasi qishloqlardan kelgan kishilardir. Buning shahar aholisi o'sishiga ta'siri uncha sezilmasada, mavjud aholining tarkibiga va shaharning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotining pasayishiga ta'siri ma'lum davrgacha seziladi. Lekin janubiy viloyatlarda murakkab sanoat korxonalarining kamligi tufayli ularning ta'siri sezilmaydi. Viloyat shaharlarining 11 tasi tuman markazlari, qolganlari yangi yerlarni o'zlashtirish bilan shakllangan. Viloyat shaharlari asosan mikroshaharlardir. Viloyatda shaharlar taraqqiyoti sust rivojlanishining asosiy sababi mavjud sanoat korxonalari xom ashyoning bir tomonlama qayta ishlashi tufayli bu shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Viloyatning 75,0%i - kichik shaharlardir. Ulardan 5,4-9,9 ming aholisi bo'lganlari 118 ta, 10-20 ming kishi yashaydiganlari 8 ta, 20-40 ming aholi yashaydiganlari 6 ta, aholisi 50-100 ming aholisi bo'lganlar 1 ta va 101-200 ming kishi bo'lgan shahar ikkitadir.

Ma'lumki, 2009 yil mamlakatimizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili deb belgilandi. Shu munosabat bilan respublikamiz qishloq manzilgohlarida sanoat (asosan yengil va oziq-ovqat) tarmoqlarini joylashtirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, qishloqlarni toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, transport va boshqa infratuzilma shaxobchalari bilan ta'minlanishini yanada yaxshilash maqsadida "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili Davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda qishloq joylari aholisining turmush darajasini ko'tarish, ularga sifatli tibbiyot va maorif xizmatini ko'rsatish, shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarini kamaytirish ko'zda tutilgan.

Qarshi dashtining o'zlashtirilishi, tabiiy gaz va neft konlaridan foydalanishning yo'lga qo'yilishi bilan respublikaning janubiy viloyatlarida ishlab chiqarish kuchlari rivojlandi. Vohada sanoatni hududlararo rivojlantirish uchun qator sanoat tugunlari: Qarshi, G'uzor, Shahrisabz, Muborak kabilar asosida Qarshi-G'uzor, Kitob-Shahrisabz sanoat tugunlari shakllandi.

Shaharshunos olimning fikricha ” urbanizatsiya jarayonining taraqqiyoti aholi o’sishi, joylashishi, ishlab chiqarishning taraqqiyotiga va ular miqdorining ko’payish sur’atlari bilan chambarchas bog’liqdir. Qashqadaryo viloyatida 3639,3 ming aholisi 28,6 ming kv.km hududga ega bo’lgan joyda atigi Shahrisabz paxta tozalash, konserva va Qarshi shahridagi paxta yog’ zavodlari bo’lgan, keyinchalik viloyatda qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tolasini ajratuvchi 8 ta paxta zavodi, Koson yog’, Qarshi vino, un kombinati, Muborak, Shurtangaz gaz tozalash zavodlari qurildi va Talimarjon GRESining 1-bloki ishga tushirildi. Qolganlari esa qurilish sanoatining oddiy sanoat korxonalari hisoblanadi. Qashqadaryo vohasi respublikada paxta, meva, g’alla, pilla, qorako’lteri, jun va boshqa mahsulotlar yetishtishda yetakchi region bo’lib, Qarshida to’qimachilik kombinati qurildi, ularni qayta ishlovchi va saqlovchi sanoat korxonalari esa sanoqlidir. Viloyat respublikada tabiiy gaz, neft qazib chiqaruvchi asosiy rayondir. Ammo ”ulkan iqtisodiy qudratga ega bo’lgan voha iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlanishi, ko’proq paxta tolasini ishlab chiqarishga, sanoatda xom ashyo va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan, ya’ni qazib olinadigan gazning 85 foizi, neftning 90 foizi, paxta tolasining ko’pchiligi, ipakning asosiy qismi viloyatdan tashqariga chiqariladi. Natijada voha aholisi ehtiyoji uchun zarur bo’lgan xalq iste’mol mahsulotlarining 60 foizdan ortig’i, to’qimachilik mahsulotining hammasi chetdan olib kelinadi. Shular qatorida ishlab chiqarish, texnika maqsadlarida qo’llaniladigan texnik mahsulotlar ham chetdan keltiriladi. Demak, vohada sanoat o’ta past rivojlangan, shaharlar iqtisodiy-sotsial taraqqiyoti respublikaning boshqa shaharlaridan ajralib turadi.

Respublikaning ” Sanoatni qishloq joylariga olib kelish” haqidagi iqtisodiy siyosati amalda qo’llash qishloq bilan shahar o’rtasida muvozanatni tiklash qishloq

aholisi tarkibini tubdan o'zgartirishga qaratilgan muhim tadbiridir. Bu qishloqlar xom ashyo emas, balki paxta tolasi, urug'lik, qayta ishlangan boshqa mahsulotlarni sotishlari uchun imkon beradi. Istiqbolli, tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari bor bo'lgan qishloq joylariga sanoat korxonalarining qurilishi kelgusida voha qishloqlarida urbanizatsiyon jarayonning rivojlanishiga keng yo'l ochadi, bu mavjud shaharlarning yanada rivojlanishiga ta'sir qiladi. Buning uchun:

1. Shaharlarda sanoat korxonalarini joylashtirishda hududning tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik sharoitlari asosida sanoat ishlab chiqarishlarni majmuali tashkil qilish;

2. Suvga tanqis va issiq iqlimli regionlardagi shaharlarda kichik sanoat korxonalarini joylashtirish;

3. Voha xalq xo'jaligida asosiy tarmoq qishloq xo'jaligi va yoqilg'i xom-ashyo ekanligidan kelib chiqib, kichik agrar-sanoat shaharlarni, iqtisodiy-sotsial taraqqiyotini e'tiborga olib yirik shaharlar majmuali ishlab chiqarishga ega bo'lgan sanoatlarni taraqqiy ettirish;

4. Aholi taraqqiyoti yer, suv va boshqa zahiralarning kamayishi xususida kelgusida shaharlar qurilishini ko'p qavatli rejalarni amalga oshirish;

5. Shaharlarning rivojlanishi, boshqa aholi manzilgohlarining taraqqiyotiga ta'sirini e'tiborga olgan holda shaharlarni aholisi besh mingdan ortgan va iqtisodiy imkoniyatlarga ega istiqbolli qishloq bazasida kichik sanoat korxonalarini va aholiga xizmat qiladigan sohalarni joylashtirish va ularga e'tiborni kengaytirish asosida shakllantirish lozim. Bu tadbirlar qishloqlardagi iqtisodiy, sotsial va ekologik muammolarni, ayniqsa mehnat resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashga hamda shaharlardagi sotsial masalalarni hal etishga sharoit yaratadi.

Adabiyotlar

1. Бўриева М.Р. Демография асослари.- Тошкент. 2001.
2. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари.- Тошкент., 2011.
3. Копылов В.А. География населения.- М., 1999.
4. Медков В.М. Демография. -М., 2004.
5. М.Янгибоев. Қашқадарё вилояти аҳоли жойлашуви ва ривожланишининг регионал муаммолари.Қарши-1998
6. П.Р.Қурбонов. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари.Монография.Тошкент “Мумтоз сўз”,2019.
7. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses. - Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 29-34
8. Murodova D.S. Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 32-35.